



**BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT VA  
MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISH MASALALARI**

**Mamatkulov Murodjon Shukurovich**

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, Buxgalteriya xisobi va audit kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.*

Email: [m.mamatkulov@tilame.uz](mailto:m.mamatkulov@tilame.uz)

**Xamrayev Sherzod Ramazonovich**

*"O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi " magistranti*


Email: [bek-1989@inbox.ru](mailto:bek-1989@inbox.ru)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola byudjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazorat usullaridan biri ichki audit xizmatini takomillashtirishning dolzarb masalalari, asosiy tamoyillari, usullari, xususiyatlari, byudjetdan tashqari topilgan mablag'larni moliyaviy nazorat qilish va ulardan foydalanish tartiblari keltirilgan. Shuningdek, davlat va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning ichki-auditi va nazoratini tashkil etishni takomillashtirish masalalari bayon qilingan.*

**Tayanch so'zlar:** *byudjet tashkiloti, oliy ta'lim muassasasi, moliyalashtirish manbaalari, byudjetdan tashqari mablag'lari, daromadlar va xarajatlar smetasi, nazorat, ichki audit, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati.*

**Adabiyotlar sharhi.** Iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi xo'jalik sub'ektlarida risklarni oshishi ichki audit xizmatini shakllantirishni asosiy zaruriyatiga aylandi. Ichki audit o'zining zamonaviy rivojlanish yo'lida operatsion roldan strategik rolga aylandi. Bugungi kunda xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqib mamlakatimiz byudjet tizimida ichki audit xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasida, viloyatlar xalq ta'limi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarida hamda Toshkent shahar Xalq ta'limi, Maktabgacha ta'lim, va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkil etildi.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit – tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo'li bilan nazorat qilish, moliyaviy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash, byudjet-smeta intizomiga rioya qilish, mablag'larni maqsadli va oqilona sarflashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ichki audit tushunchasiga mamlakatimiz olimlaridan K.B.Axmedjanov "Ichki audit – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga risklarni boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv tizimiga Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 1-son 3 maqbul yondashuv asosida qo'yilgan maqsadlarga erishishda yordam beruvchi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ob'ektiv kafolatlar va maslahatlar beruvchi mustaqil tizim" ekanligini e'tirof etadi. Shuningdek, A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbaevlarning yondashuvi quyidagicha ya'ni, "Ichki audit – ob'ektiv faoliyat bo'lib, ichki nazoratni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan, tuzilayotgan hisobotlarni va byudjet tashkiloti faoliyati samarasini hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar taqdim qilishga yo'naltirilgan"


**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati iqtisodiy rivojlangan davlatlar amaliyotida ancha oldin joriy etilgan bo'lib, bugungi kunga kelib yaxshi rivojlangan va ichki auditning bir nechta xalqaro modellari ishlab chiqilgan. Jaxon tajribasidan kelib chiqib, butun dunyo tan olgan xalqaro ichki audit modellari, ichki audit standartlari, axlok me'yorlari asosida mamlakatimiz iqtisodiy muxitiga moslashtirib, ichki auditning eng optimal variantda tashkil qilish masalalarini ko'rib chiqilmoqda. Ichki nazorat tizimini samarali tashkil qilish bilan bogliq xalqaro modellardan foydalanib, ularni iqtisodiy sharoitga moslashtirib, amaliyotda foydalanish uchun namunaviy model ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishini ta'minlab, uni reja asosida ijrosini muntazam nazorat qilishni ta'minlaydi. 1-jadvalda Davlat moliyaviy nazorati hamda audit va moliyaviy nazorat keltirilgan








MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Ichki auditning usullari moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini o'rganish, aktivlarning saqlanishi va majburiyatlarning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi, haqqoniyligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlab berish, shuningdek, ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini o'rganish maqsadida uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik va samarali uslub hamda choralarining majmuasidan iboratdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish lozimki, yuqorida keltirilgan fikrlar hozirgi vaqtda rivojlangan va ko'p funksiyali ichki audit tizimiga bo'lgan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ehtiyojlarning ortib borayotganligini tasdiqlaydi. Ichki auditning yo‘nalishlariga muvofiq, turli choralar amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, moddiy qimmatliklar bilan bo‘ladigan muomalalarni audit qilishda quyidagilar tekshiriladi:

- aktivlarning hisobda tan olinishining to‘g‘riligi;
- moddiy qimmatliklar qoldiqlarining me‘yorlar darajasida ekanligi;
- moddiy qimmatliklar saqlanishining ta‘minlanganligi, moddiy javobgar shaxslarning tayinlanganligi to‘g‘risidagi rahbarning buyruqlari mavjudligi, to‘liq shaxsiy moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi shartnomalarning mavjudligi;
- moddiy qimmatliklar inventarizatsiyasi o‘z vaqtida o‘tkazilishi;


Byudjet tashkilotlarida ichki audit doirasi quyidagi sohalarni qamrab olishi kerak:

- yillik va strategik rejalarda belgilab qo‘yilgan maqsadlarga erishish darajasini baholash va byudjet dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirishning samaradorligi;
- tashkilot ichki nazorat tizimining samaradorligi, byudjet dasturlarini amalga oshirish natijalari, ma‘muriy xizmatlarning sifati va nazorat qilish funksiyalarini bajarishi;
- qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar, shuningdek, oliy ta‘lim muassasasining funksiyalari va vazifalarini bajarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan tavakkalchiliklari;

- tashkilotning moliyaviy va byudjet hisobotlarining qonuniyligi va ishonchliligi, buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishi bo‘yicha faoliyatini baholash;

- axborot va davlat mulki boshqaruvi to‘g‘risidagi qonunlar, rejalar, protseduralar, shartnomalar va aktivlarni zararlardan himoya qilinishi bo‘yicha tashkilot faoliyatiga baho berish.

Ichki audit o‘tkazgan tekshiruvlari bo‘yicha natijalarning ishonchliligini ta‘minlaydigan uslublar, usullar va amaliyotlar yordamida audit ma‘lumotlarini to‘plashni, shu bilan bir qatorda ichki audit xizmati ushbu ob‘ektlar, usul va tartiblarga qarab ob‘ektni va auditorlik to‘g‘risidagi ichki hujjatlarni talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlashi lozim.







**FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2022 yildagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Qarori.

2. Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Diss. avtoref. i.f.d.. – Toshkent. 2016.

3. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. infoCOM.Uz MChJ. T.: 2010. 192 b.

